

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil/46.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SHUKUROVA BARCHIN SAMADOVNA

**YANGI O‘ZBEK NASRIDA ETIK VA ESTETIK IDEAL MUAMMOSI
(L.Bo‘rixon va Q.Norqobil nasri misolida)**

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

Shukurova Barchin Samadovna

Yangi o‘zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi (L.Bo‘rixon va
Q.Norqobil nasri misolida)..... 3

Shukurova Barchin Samadovna

The problem of ethical and aesthetic ideal in new Uzbek prose (in the case of
the prose of L.Borikhon and Q.Norqabil)..... 27

Шукурова Барчин Самадовна

Проблема этического и эстетического идеала в новоузбекской прозе (на
примере прозы Лукмана Борихана и Кучкара Норкабила)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil/46.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SHUKUROVA BARCHIN SAMADOVNA

**YANGI O‘ZBEK NASRIDA ETIK VA ESTETIK IDEAL MUAMMOSI
(L.Bo‘rixon va Q.Norqobil nasri misolida)**

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № V2019.1.PhD /Fil.758 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Miliyev Suvonqul,
filologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar: Amonova Zilola Qodirovna,
filologiya fanlari doktori, dotsent
Jo'raqulov Uzoq Haydarovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01. raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "1" fevral soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

(Manzil: 100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (71) 233-36-50; fax: (71) 233-71-41. e-mail: uztafi.@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin. (___ raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (71) 262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "12" yanvar da tarqatildi.

(2023-yil "11" yanvar dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.F. Karimov,
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, filol.f.d., akademik

R. Barakayev,
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.n., prof.

J.S. Eshonqulov,
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida etik va estetik ideal, ideal kategoriyalari, ularning nazariy jihatlarini, mukammal ideallikning go‘zallik, ezgulik, umuminsoniylik tabiati kabi ilmiy-nazariy masalalari muntazam ravishda izchil o‘rganib kelinmoqda. Globallashuv jarayonida adabiyotda turli tasavvur va tushunchalarning shakllanishi etik va estetik ideal muammosini yanada yangicha nuqtayi nazarlardan o‘rganishni taqozo qiladi. Zero, badiiy adabiyotdagi ideallik inson shaxsi ruhiyati va jamiyat ma’naviy taraqqiyotining ifodasi sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiyot va axloq mushtarakligi masalasini o‘rganish yetakchi muammolardan biri bo‘lib, unga qadimdan tadqiqot predmeti sifatida qaraladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda etik va estetik ideal oriyentirlariga o‘zgartirish kiritishlarga bo‘lgan urinishlar mazkur muammoni aniqlashtirish ehtiyojini tug‘dirdi. Binobarin, axloq va etik-estetik ideal – adabiyot hamda san’atning muhim kategoriyasi sanalib, jamiyat va shaxsning komil axloqiy va mukammal go‘zallik prinsiplarini shakllantiradi. Xususan, estetik did, yuksak axloq, komil shaxs, adabiyotning axloqiy mazmuni, ijtimoiy ideal, estetik his, estetik ehtiyoj, badiiy asar g‘oyaviyligi, butun obraz, kinoya, kulgi, go‘zallik, ezgulik, umuminsoniylik kabi kategoriyalarni o‘rganish davr taqozosidir.

Mustaqillik davri o‘zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi bugungi faol yozuvchilar Luqmon Bo‘rixon hamda Qo‘chqor Norqobil ijodida ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, umuminsoniy ideallarni jahon adabiyotshunosligi kontekstida tadqiq etish zaruratini tug‘diradi. “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor”¹. Binobarin, ushbu tamoyil ijodkorlar, adabiyotshunoslar oldiga kishilik jamiyatidagi etik va estetik ideal muammosini tadqiq etish, uni milliy va umuminsoniy kategoriyalar asosida o‘rganish vazifasini ham qo‘yadi. Hozirgi o‘zbek nasrida milliy an’analar va qadriyatlarini muqaddas bilgan o‘zbek xarakteri, zamon bilan hamnafas adabiy qahramonlar, halollik, mehnatkashlik, vatanparvarlik, tinchliksevarlik, hayotsevarlik, sadoqat, oilaparvarlik kabi oliy ideallar ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4871-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг муштақкам пойдеворидир // Халқ сўзи, 2017, 4 август.

tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida adabiyot va axloq, axloqiy estetik ideal, estetik idealning zamonaviyligi, etika va ma'naviyat, falsafa va estetika tarixida ijtimoiy estetik ideal masalasiga doir ko'plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar bajarilgan. Xususan, Platon, Aristotel, Abu Nasr Forobiy, Aziziddin Nasafiy, Immanuel Kant, Artur Shopenhauer, Georg Vilgelm Fridrix fon Gegel kabi olimlarning ishlarini keltirish mumkin². XX asrga kelib, bu muammo yanada kengroq tadqiq etildi³. O'zbek adabiyotshunosligida ham

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри (Танланган асарлар). – Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 1993. – 224 б.; Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2021. – 232 б.; Кант И. Из "Лекций по этике" / Этическая мысль. 1990. – М.: Политиздат, 1990. – С. 296-323.; Шопенгауэр А. Избранные произведения. – М.: Просвещение., 1992. – 302 с.; Гегель. Эстетика. в 4-х томах. Том 1-й. – М.: Искусство, 1968. – 312 с.

³ Лармин О. Эстетический идеал и современность. – М.: Моск. ун-т, 1964. – 155 с.; Этика и эстетика : Респ. межвед. науч. сб. / Киев. гос. ун-т им. Т. Г. Шевченко ; [Редкол.: Л. Т. Левчук (отв. ред.) и др.]. - Киев : Лыбидь, 1965. 354 с.; Муриан В. Эстетический идеал. – М.: Искусство, 1966. – 247 с.; Эстетические идеалы М.Ю. Лермонтова: Спец. курс лекций для студентов-филологов / Иркут. гос. ун-т им. А. А. Жданова. - Иркутск : 1968. - 202 с.; Эстетический идеал и проблема художественного многообразия: [Сборник статей] / Акад. обществ. наук при ЦК КПСС. Кафедра литературоведения, искусствоведения и журналистики ; [Ред. коллегия: проф. В. В. Новиков (отв. ред.) и др.]. - Москва : Мысль, 1968. - 359 с.; Нигматуллина Ю.Г. Национальное своеобразие идеала и искусство. – Казань, Татгосиздат, 1970. – 212 с.; Этика и эстетика: Проблемы морально-эстетического воспитания личности в свете решений XXV съезда КПСС: [сборник статей / редколлегия: В. А. Кудин (ответственный редактор) и др.] – Киев: Вища школа, 1977. – 149 с.; Осичнюк Е.В Идеал и деятельность. – Киев: Высшая школа. – Изд-во при Киев. ун-те, 1981. – 184 с.; Этика и современность. – М.: Знание, 1981. – 112 с.; Пивоев В.М. Ирония как эстетическая категория // Философские науки. – 1982. – № 4 – С. 59; Кононенко Е.И. Эстетический диапазон иронии // Проблемы эстетической культуры и искусства. – М. – 1982. – С. 114.; Этика идеология. [Редкол.: Л.М.Архангельский (отв.ред.)и др.], – М.: Наука, 1983 – 358 с.; Эстетические категории и искусство. [Сборник статей] / Молдавский государственный институт искусств; ред. В.О. Пигулевский. – Кишинев: Штиинца, 1989. – 154 с.; Эстетика категории: формирование и функционирование: Межвуз. Сб / – Петрозаводск: Петрозаводского университета им. О.В.Куусинена; [Редкол.: В. М. Пивоев (отв. ред.) и др.]. 1985. – 109 с.; Эстетический идеал современность: Понятие, проблемы, премственность. Отв. ред. М. Ф. Овсянников. – М: Наука, 1986. – 183 с.; Этика и мораль Философско-этические проблемы воспитания. – М., 1990. – 195 с.; Борев Ю.Б. Эстетика. – М.: Политиздат, 1988. – 495 с.; Борев Ю.Б. Эстетика: В 2 т. – Смоленск, 1997. Т.1. – С. 187.; http://www.urgj.info/urgjinfofiles/sites/pigulevsky-ironiya/01_glava_1/htm#1.1-6

adabiyot va axloq⁴, siyosat va axloq⁵, axloqiy idealning ijtimoiy falsafiy mohiyati⁶, folklor va yozma adabiyotda estetik ideal masalasi⁷ risola, dissertatsiya va monografiyalar tarzida ishlangan. Hozirgi o‘zbek nasrining faol nosirlari Luqmon Bo‘rixon va Qo‘chqor Norqobil ijodi ko‘plab adabiyotshunoslar diqqatini o‘ziga jalb etib, taqriz, maqolalar va bitta dissertatsiya ishi yaratilgan⁸. Ammo bu

Общий_смысл_иронии; Этика и эстетика. – Новосибирск: Новосибирский государственный технический университет; [сост. М. Т. Усова]. 2010. – 309 с.; Мехед Г.Н. Проблема человека в этике и эстетике Ф.М.Достоевского // Философия. Культурология. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия Социальные науки, 2013, №4 (32). – С. 143-148; Павлова Л.А. Этико-эстетические идеалы: синкретический подход // Известия Самарского научного центра Российской академии наук, т. 15. №2 (2), 2013. – С. 516-520; Гегель. Эстетика (рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси) // Шарқ юлдузи. 2014. №1, №2, №3, №4, №5, №6. Роулс Д. Теория справедливости / Этическая мысль. 1990. – М.: Политиздат, 1990. – С. 229-242; Эпштейн М.Н. От знания – к творчеству. Как гуманитарные науки могут изменять мир. – М. - СПб: Центр гуманитарных инициатив, 2016. – 296 с.

⁴ Кунчева Л. Адабиёт ва ахлоқ. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК нашриёти, 1969. – 40 б.; Аликулов Х. Даввоний этикаси. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК нашриёти, 1969. – 28 б.; Аликулов Х. Шарқ мутафаккирлари ахлоқ ҳақида. – Тошкент: Фан, 1979. – 48 б.; Болтабоев Ҳ. Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 2-жилд: Ўрта асрлар. Уйғониш даври (IV-XVI) – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – 428 б.

⁵ Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ мувозанати муаммолари: Сиёсий фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006 – 50 б.

⁶ Самадов А. Ахлоқий идеалнинг ижтимоий- фалсафий моҳияти ва унинг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти: Фалс. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 24 б.; Шер А. Эстетика (нафосат фалсафаси): - Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 368 б.; Абдуллаев С. Гўзаллик инсон маънавий борлигининг шакли сифатида: Фалс. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 42 б.

⁷ Алимов С. Эстетик идеал ва унинг революциядан олдинги ўзбек фольклоридаги тажассуми: Фалс. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1975. - 191 б.; Каримов Н. Гўзалликнинг олмос кирралари. – Тошкент, 1979 – 39 б.; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994. – 141 б.; Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт (Адабий-эстетик, танқидий тафаккур тамойиллари). – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 328 б.; Қахрамонов Қ. Адабий жараён ва эстетик талқин. – Тошкент, 2014. – 160 б.; Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011. – 162 б.; Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 464 б.; Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 224 б.; Шофиев О. Эркин Аъзам насри бадиияти: киноя ва образ. – Тошкент: Қақнус Медия, 2019. – 172 б.; Тўлаганова С. Ижодкор шахси ва бадиий қахрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида): Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс... автореф. – Тошкент, 2019. – 70 б.; шу муаллиф. Абдулла Қодирий: Шахсият ва ижод. – Тошкент: Илм-зиё – заковат, 2021. – 204 б.; Мели С. Сўзу Сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 528 б.; Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадиий шартлилик. – Тошкент: Фан, 2020. – 248 б.; Назаров Б. Бадиий тағқатлам ва эстетик идеал / Ижоднинг жон томири. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2022. – Б 314-325.

⁸ Йўлдошов Қ. Кинояга йўғрилган асар / Бўрихон Л. Жазирамадаги одамлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2005 – 3-5 б.; Содиқ С. Тома-тома кўл бўлур / Роман ва танқид. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 3-7; Ғафуров И. Илоҳиётшунос аллома сиймоси / Ёшлик. 2022, №1. – Б. 16-19; Каримов Б. Бадиий талқин жозибаси / Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016. – Б. 27-28; Солижонов Й. XXI аср насри манзаралари / Адабиёт хиёбони. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2020. – Б. 74; Ülvi A. Qoʻshqar Narqabilin həyat və yaradıcılığına dair etüdlərim / Narqabil Q. Xoʻshbəxtliyin bazari varmı?... bir komediya. – Bakı: Avropa nəşriyyati, 2019. – S. 3-17; Жўракулов У. Хос калом хосияти / Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 252-271; Ёкубов И. Адиб соғинган манзил-маъволар / Бўрихон Л. Титраётган тоғ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018. – Б. 177-

ijodkorlar nasridagi etik va estetik ideal muammosi shu kunga qadar maxsus monografik aspektida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy ishlari rejasidagi OT-F1-77 “O‘zbek adabiyoti durdonalari” 100 jildligini nashrga tayyorlash” fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi o‘zbek nasrida etik va estetik ideal muammosini L.Bo‘rixon hamda Q.Norqobil ijodi misolida tahlil qilib, yangilangan va zamon bilan hamnafas ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy ideallarni aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutildi:

etik va estetik idealning nazariy tabiatini ochish;

yangi o‘zbek nasrida Imom Moturidiy obrazi etik va estetik idealning yorqin namunasi sifatida aks etgan komil shaxs talqinini yoritish;

adiblar nasrida namoyon bo‘lgan tinchlik, farovonlik, adolat kabi ijtimoiy; muhabbat, shukronalik, halollik, imon, vijdon kabi ma’naviy-axloqiy etik-estetik ideallarni tahlillar asosida dalillash;

yangi o‘zbek nasrining ikki ijodkori L.Bo‘rixon va Q.Norqobil asarlarida etik-estetik ideal qahramonlar milliy xarakterida qashqadaryolik va surxondaryolik jaydari tabiatli momolar va bobolar qiyofasida ifodalanganini ilmiy asoslash;

L.Bo‘rixon va Q.Norqobil nasrida zaharxanda kinoyaviy ohang estetik ideal sifatida namoyon bo‘lganini aniqlashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida Luqmon Bo‘rixonning “Yalangoyoq”, “Sirli muallim”, “Xizr ko‘rgan yigit”, “Tun qa‘ridagi shu’la”, “Jaziramadagi odamlar”,

203; Kўчқорова М. Икки ҳовуч нур... / Ёшлик. 2014, №11. – Б. 46-47; шу муаллиф. “Жазирамадаги одамлар” романи бадииятига чизгилар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017, №5. – Б. 68-75; шу муаллиф. Ёзувчи фақат ўзини, ўз дунёсини ёзади... (Ёзувчи Кўчқор Норқобил билан суҳбат) // Ижод олами. 2018. №5. – Б. 5-7; шу муаллиф. Луқмон Бўрихон насрида киноя ва унинг воситалари / Филологиянинг долзарб масалалари. – Термиз, 2016. – Б. 32-43; шу муаллиф. Кўчқор Норқобилнинг ҳикоянавислик маҳорати / Адабиётшуносликнинг долзарб масалалари. – Қўқон, 2019. – Б. 37-47; Расулова У. XX аср ўзбек қиссалари тадрижи. – Тошкент: Фан, 2012. – 60 б.; шу муаллиф. XX аср ўзбек қиссачилиги – Тошкент: Қамар медиа, 2020. – Б. 79-185; Ҳамроқулова Х. Адабиётда ҳаёт-мамот муаммоси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – Б. 125-145; Ризаев Ш. Хотира ва Муҳаббат куршовида / Осмон остидаги сир. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. – Б. 3-34; Сатторова Г. Адабиёт ва маънавий эҳтиёж (ҳикоялар бўйича) // Шарк юлдузи, 2014. №3 – Б. 108; шу муаллиф. Бугунги ўзбек драмаларида замондош образи / Глобаллашув: бадиий талқин, замон ва қаҳрамон. – Тошкент: Фан, 2018. – Б. 308-317; шу муаллиф. Ўзбек ҳикоячилиги: Адабий алоқалар ва глобаллашув / Глобаллашув: Бадиий талқин, замон ва қаҳрамон. 2-китоб. – Тошкент: Тамаддун, 2019. – Б. 140-158; Химматова Г. Кўчқор Норқобил насрида давр ва шахс талқини: Фалс. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022. – 52 б.; Маҳмудов Й. Ҳикоя бадиияти: Луқмон Бўрихон ҳикоялари мисолида. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – 64 б.; Ашур С. Адабиёт ғолиб жойда жаҳолат мағлубдир. Адиб Кўчқор Норқобил билан суҳбат. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2021, 7-may. / № 19 (4626) – Б. 4; Аллома сийрати акс этган асар (Ёзувчи Л.Бўрихон билан суҳбат). Суҳбатдош З.Аҳмаджонова // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2022, 9-sentyabr. / №31. – Б. 4.

“Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi”, Qidiruvdagi qiz”, “Quyosh hali botmagan”, “Titrayotgan tog‘”, “Imom Moturidiy” hamda Qo‘chqor Norqobilning “Daryo ortidagi yig‘i”, “Kulib tur, azizim”, “Quyoshni kim uyg‘otadi?”, “Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim”, “Afg‘on 2-rota”, “Osmon ostidagi sir”, “Biz jangdan qaytmadik...”, “Samodil”, “Olislarda osmon yo‘q edi”, “Urushning birinchi kuni”, “Urush tugasa, ayting, qaytib kelaman” kitoblariga kirgan roman, qissa, hikoyalari olindi.

Tadqiqotning predmetini Luqmon Bo‘rixon va Qo‘chqor Norqobilning nasriy asarlarida etik va estetik idealni o‘zida mujassam etgan badiiy obrazlar hamda badiiy g‘oyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, psixologik, germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yangi o‘zbek nasrida etik va estetik idealning namoyon bo‘lishi asoslanib, yangi o‘zbek nasrida estetik idealning adabiy qahramon va asar badiiy g‘oyasida mujassamlangani ochib berilgan;

Luqmon Bo‘rixon “Imom Moturidiy” tarixiy romanida komil shaxs va etik-estetik ideal yaratishda badiiy konflikt, kinoyaviy uslubdan mahorat bilan foydalangani ilmiy jihatdan dalillangan;

Luqmon Bo‘rixon va Qo‘chqor Norqobil nasrida ijtimoiy ideallar (mehnatsevarlik, vatanparvarlik, tinchlik, farovonlik) va ideallarning zamonaviyligi hamda davrlar osha o‘zgaruvchanligi aniqlangan;

yangi o‘zbek nasrida milliy qadriyat va an‘analarning ideal sifatida namoyon bo‘lishi, muallif estetik idealini ifodalashda an‘anaviy realizm imkoniyatlari hamda kinoyaviy badiiy vositalardan foydalangani ilmiy o‘rganilib, adibning ijodiy yutug‘i sifatida ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yangi o‘zbek nasrida etik va estetik ideal muammosining nazariy tabiati asoslangan;

yangi o‘zbek nasrida etik-estetik ideal sifatida badiiy talqin qilingan “Imom Moturidiy” tarixiy romani tahlili misolida komil shaxs obrazini yaratishda konfliktning o‘rni ochib berilgan;

yangi o‘zbek nasrining ikki faol nosiri L.Bo‘rixon va Q.Norqobil qalamiga mansub roman, qissa, hikoyalarda etik va estetik ideal ifodasi ilmiy asosda aniqlangan;

ikki ijodkor nasrida ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy ideallarning namoyon bo‘lish usullari va ularning badiiy mahorati ko‘rsatilgan;

etik va estetik idealni ifodalashda an‘anaviy realizm imkoniyatlari hamda kinoyaviy estetik ideal aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar va tahlillarning analitik, qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, struktural, germenevtik, tasniflash, tavsiflash, kontekstual kabi usullar bilan asoslangani, ishonchli nazariy manbalarga tayanilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, yangi o‘zbek nasrida bugungi globallashuv sharoitida shakllanayotgan etik va estetik ideal muammolarining milliy hamda umuminsoniy tamoyillarga muvofiqligiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, izlanish xulosalari o‘zbek nasrining zamonaviy yozuvchilari ijodidagi shakliy-uslubiy va kompozitsiya yangilanishi haqidagi bilimlarni to‘ldirib, adabiyotshunoslik nazariyasi, o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek adabiy tanqidi tarixi, hozirgi adabiy jarayon kabi fanlardagi qarashlarning rivojiga xizmat qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari, akademik litseylar uchun “Adabiyot nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Yangi o‘zbek adabiyoti” fanlari va o‘quv kurslari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlash, maxsus kurs va tanlov mashg‘ulotlari o‘tkazish hamda Luqmon Bo‘rixon va Qo‘chqor Norqobil hayoti va ijodi haqida adabiy portret yaratishda foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek nasrida etik va estetik ideal muammolari mavzusida olib borilgan tadqiqotlar asosida:

globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazini o‘rganishda tadqiqotchining dissertatsiya mavzusi yuzasidan chop qilingan “Hikoyada milliy xarakter va zamonaviy muammolar talqini” (“O‘zbek tili va adabiyoti”, 2020, 2-son, 58-60-betlar), “Hikoyada qahramon ruhiyati tasviri” (“O‘zbek tili va adabiyoti”, 2020, 6-son, 80-84-betlar) maqolalarida aks etgan hozirgi o‘zbek nasrida milliy an‘analar va qadriyatlarni muqaddas bilgan o‘zbek xarakteri, zamon bilan hamnafas adabiy qahramonlar, halollik, mehnatkashlik, vatanparvarlik, tinchliksevarlik, bunyodkorlik, hayotsevarlik, sadoqat, oilaparvarlik kabi oliy ideallar haqidagi ilmiy-nazariy muammolarni aniqlashtirishga doir xulosalaridan OT-F1-80 – “Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi” fundamental loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2022-yil 1-martdagi №3/1255-499-sonli ma’lumotnomasi). Natijada “Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi” (Toshkent: Muharrir, 2018) jamoaviy to‘plamida yangi o‘zbek nasrida faol ijod qilayotgan ikki yozuvchi Luqmon Bo‘rixon hamda Qo‘chqor Norqobilning roman, qissa, hikoyalarida namoyon bo‘lgan etik va estetik ideallari muammosi kengroq yoritilgan;

“Luqmon Bo‘rixon. Tanlangan asarlar. Roman va hikoyalar” jildligini tayyorlash hamda bu jildliklarga “Kirish so‘zi” va “Izohlar” tayyorlashda tadqiqotchining “Luqmon Bo‘rixon hikoyachilik mahorati: taassub va tadjir”, “Hikoyada qahramon ruhiyati tasviri” (2020)” maqolalaridagi yozuvchi nasriga xos individual xususiyatlar, etik va estetik idealni yaratishdagi ijodiy yangilanishlari haqidagi ilmiy-nazariy xulosalaridan OT-F-77 “O‘zbek adabiyoti durdonalari 100 jildligini nashrga tayyorlash” fundamental loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2022-yil 1-martdagi №3/1255-499-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yangi o‘zbek nasrining iste’dodli nosiri Luqmon Bo‘rixon asarlarida namoyon bo‘lgan zamonaviy ijtimoiy ideallar (bunyodkor

mehnat kishisi obrazi) hamda umuminsoniy oliy ideallar sof muhabbat va odamiylik ideallar haqidagi ilmiy xulosalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Nasr kengashi yillik hisobot yig‘ilishlarida, yosh ijodkorlar bilan adabiy mashg‘ulotlarda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda yangi o‘zbek nasrida ilk bor yaratilgan Imom Moturidiy obrazining sharqona etik-estetik idealligi masalasi L.Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani badiiy estetik tahlili, shuningdek, yangi o‘zbek nasrida urush va tinchlik mavzusini xalqaro miqyosda keng badiiy targ‘ib etayotgan Q.Norqobilning “Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim”, “Tabassum qil, sevgilim” to‘plamlariga kirgan qissa va hikoyalaridagi estetik ideallar talqini bo‘yicha olib borilgan ilmiy-nazariy xulosalaridan foydalanilgan (Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 28-iyundagi №01-03/853-sonli ma’lumotnomasi). Natijada adabiyotshunoslik va tanqidchilikda yozuvchi shaxsi hamda etik va estetik ideali masalasi ko‘rsatib berilgan.

“Yangi o‘zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi (L.Bo‘rixon va Q.Norqobil nasri misolida)” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ilmiy-nazariy xulosalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalida e’fira uzatilgan ilmiy-ma’rifiy ko‘rsatuvlarda, xususan, “Assalom, O‘zbekiston!” hamda “Ziyoli minbari” teleko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 21-sentabrdagi 06-28-1404-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarda ko‘tarilgan adabiy masalalarning ilmiy asosi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy jurnallarida 7 ta, jumladan, xorijiy nashrlarda 2 ta, respublika nashrlarida 5 ta, shuningdek, boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 14 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotshunoslikda etik va estetik ideal nazariy muammosi: komil shaxs talqini**” deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan tarkib topgan. Birinchi fasl “Etik va estetik idealning nazariy tabiati” deb nomlanadi.

Mazkur bobning ilk faslida etik va estetik ideal tushunchasining nazariy tabiati, uning o'rganilish tarixi, shuningdek, mazkur sohada tadqiqot olib borgan yetuk olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, dunyo va o'zbek adabiyotida etik va estetik ideal muammosining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligi misolida etik va estetik idealning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan holda, uning hozirgi adabiy jarayondagi o'rni kuzatilgan. Bugungi kunda jahon adabiyoti miqyosida o'zining muayyan pozitsiyasiga ega bo'lib borayotgan etik va estetik ideal muammosi adabiyotshunoslarning alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Adabiyotshunoslikda adabiyot va axloq mushtarakligi masalasini o'rganish kundan kunga dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, axloq va etik-estetik ideal – adabiyot hamda san'atning muhim kategoriyasi sanalib, jamiyat va shaxsning komil axloqiy mukammal go'zallik prinsiplarini shakllantiradi.

Lug'atlarda “estetik ideal”ga kategoriya sifatida yondashilgan. U inson tomonidan anglangan voqea-hodisaning yuksak ko'rinishi, dastlabki yuksak obraz, yetuk tasavvur, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va mukammal inson haqidagi tushunchaga nisbatan qo'llanilgan. Bu esa estetik idealning serqirra va serko'lam tushuncha ekanligini namoyon etadi. Lekin estetik ideal ko'proq inson botiniy olamidagi tushuncha, yuksak qadriyatlar obrazi bo'lsa, uning ezgu g'oyalar majmuyi axloqiy faoliyatni talab etadi. Shu ma'noda badiiy asarda etik va estetik kategoriyalar doimo birga yurishi shartdir. Mohiyatan estetik idealga falsafiy jihatdan yondashilganda – Haqiqat shaklida, etik jihatdan yondashilganda – Ezgulik shaklida, estetik jihatdan yondashilganda – Go'zallik shaklida namoyon bo'ladi. “Estetik ideal – bu dunyoni o'zgartirish va madaniyat yaratish uchun inson faoliyatining maqsadi hamda yo'lchi yulduziga aylangan voqelik va madaniyatdagi eng yuqori uyg'unlik va mukammallik to'g'risidagi g'oyadir. Ideal allaqachon mavjud bo'lgan voqelik hamda amalga oshirilgan ishlar bilan mos kelmaydi. Uni yaratuvchi xalq ham shu idealga yaqinlashib, voqelikni idealga yaqinlashtiradigan daholarni yaratadi”⁹. Olimlar bashariyat ideallsiz yashay olmasligi, jamiyat uchun doimo daholar ideal bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Adabiyot va san'at doimiy ravishda Oliy axloq hamda mukammal go'zallik muammolarini aks ettiradi. Adabiyot o'zining Oliy ideallarini to'xtovsiz ravishda qidiradi va topadi.

Estetik ideal tushunchasini etik idealdan ajratib bo'lmaydi. Chunki adabiyot va san'atning markazida Oliy axloqli barkamol shaxs eng katta estetik ideal sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilar o'rganganidek, “Axloqiy ideal” tushunchasi ko'plab ijtimoiy-falsafiy, diniy, badiiy-estetik, milliy-ma'naviy, ruhiy jarayonlar hosilasidir. Ammo idealni yuksak orzu, yuqori balandlikdagi maqsad deb bo'lmaydi. “Ideallar har bir shaxs ongida yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, haqiqat va yolg'on, ezgulik va yovuzlik, olijanoblik va pastkashlik, mardlik va qo'rqqoqlik kabi fazilat va illatlar, timsollar asosida vujudga keladi”¹⁰.

⁹ Боров Ю. Эстетика. – М.: Политиздат, 1988. – 24 с.

¹⁰ Самадов А. Ахлоқий идеалнинг ижтимоий-фалсафий моҳияти ва унинг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти: фалсафа фан. номзод.... дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 18.

Adabiyot va san'atda mukammal go'zallik eng ulkan baho – estetik ideal bilan o'lchanadi. Badiiy adabiyotda inson va uning orzulari, iztiroblari, nafrati, muhabbati, xullas, his-tuyg'ulari ijodkor tomonidan go'zallik kategoriyasi asosida taftish etib beriladi. Globallashib borayotgan dunyo bugungi zamonaviy badiiy adabiyotga yangi qiyofalarni olib kirmoqda. Chin ma'noda globallashuv inson va uning dunyoqarashlarining yangicha rakursda shakllanishiga imkon beradi. Inson va uning globallashuv jarayonidagi ideali badiiy adabiyotda qanday aks etishi dolzarb bo'lib qolmoqda. Adabiyotshunos S.Meli "Buyuk adabiyot orzusi" maqolasida bu masalaga quyidagicha yondashadi: "Hozirgi G'arb jamiyatida ro'y berayotgan axloqiy buzilishlar fonida badiiy adabiyotda go'zallik qonuniyatlari bilan bir qatorda, balki ulardan ustun darajada axloqiy qonuniyatlar, odob-axloq masalasi yetakchi mavqega chiqdi. Boshqacha aytganda, hozirgi kunda badiiy adabiyot, umuman san'at uchun estetikadan ko'ra etika muhimroqdir. Aslida-ku, go'zallik va axloq egizak tushunchalardir"¹¹. Mazkur faslda o'zbek va xorijlik olimlarning etik va estetik ideal bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari bahsga tortildi hamda ularga munosabat bildirildi.

Bobning ikkinchi fasli "Imom Moturidiy – komil shaxs obrazini yaratishda konfliktning o'rni" deb nomlangan. Unda Luqmon Bo'rixonning o'zbek adabiyotida ilk bor yaratilgan "Imom Moturidiy" tarixiy romani tahlilga tortilgan. Aslida, Abu Nasr al-Moturidiy IX-X asrlarda Movarounnahrda somoniylar hukmronligi davrida yashab ijod qilgan. Moturidiy islom olamida "Imom al-huda" (hidoyatga boshlovchi imom), "Rais ahli sunna val jamoa" (ahli sunna val jamoa imomi) nomlari bilan tanilgan buyuk shaxs bo'lib, uning tug'ilgan yili noma'lum, vafot etgan sanasi esa milodiy 944-yil deb ko'rsatilgan. Imom Moturidiy yashagan davr turli g'oyaviy parokandalik va ixtiloflar kuchaygan payt edi. Hadisshunos va fiqhshunos olim Imom Moturidiy bu davrda paydo bo'lgan qadariya, jabariya, xorijiya kabi oqimlarga qarshi tura oldi. Buyuk alloma ahli sunna val jamoa aqidasi saqlab qolgan.

Bugungi globallashuv davrida tobora avj olayotgan diniy-ekstremistik g'oyalarga Luqmon Bo'rixonning yangi romani javob tariqasida yaratildi. Asarda ilohiyotshunos alloma va uning shaxsiy hayoti aks ettirilgan. Uning aqida va kalom ilmi rivojiga qo'shgan bebaho hissasiga urg'u berilib, Moturidiy timsoli orqali yosh avlodni ezgu umuminsoniy g'oyalar ruhida tarbiyalash romanning asosiy badiiy maqsadiga aylangan. Asar bosh qahramoni Imom Moturidiyning islom dini yo'lida olib borgan sa'y-harakatlari, oila va somoniylar hukmronligi davrida tutgan avliyosifat go'zal fazilatlarini zamondoshlarimizga etik va estetik ideal sifatida taqdim etilgani mazkur faslda atroflicha tahlil etildi. "Badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi shuki, u insonni komillikka yetaklaydi, jamiyatni mukammallashtirishga xizmat qiladi"¹², – deydi olim. D.Quronov ta'kidlaganidek, badiiy adabiyot doimo insoniyatni komillikka boshlaydi. Shu ma'noda bugungi o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan nosirlaridan biri L.Bo'rixon Imom Moturidiy

¹¹ Мелиев С. Буюк адабиёт орзуси // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2021, 20-avgust / № 34 (4641) – Б. 4.

¹² Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – Б. 39.

obrazini komil shaxs sifatida tasvirlaydi. Yozuvchi Imom Moturidiy etik-estetik ideali orqali jamiyatni mukammal bo'lishga, insonni o'z-o'zini isloh qilishga undaydi.

Luqmon Bo'rixon asarda nafaqat uzoq moziy voqealarini qalamga oladi, balki bugungi kun muammolarini ham e'tibordan qochirmaydi. Romanda Imom Moturidiy, Ahmad Ibn Ismoil, Xolid Xalaj, alloma Ash'ariy kabi tarixiy shaxslar obrazi bilan bir qatorda o'nlab badiiy to'qima obrazlar ishtirok etadi. Surayyo, Idris Shomiy, Irzo Dovot, Vosiq ibn Qosim, To'tiyoxonim, Bibinor, Inoyat, Xattot Nuriy, Gulsum, Gulziyo, Sora kabi obrazlar shular jumlasidan. Roman muqaddima va uch qismdan tashkil topgan. Adib asarda Imom Moturidiy va somoniylar davridagi tarixiy voqealarni qalamga olar ekan, sof e'tiqod, adolat, haqiqat, intizomni estetik ideal sifatida ilgari suradi. Romanda Imom Moturidiy kamtar, dunyo hoyu havaslaridan voz kechgan, faqat Oллоhga toat-ibodat qiladigan komil shaxs sifatida mahorat bilan tavsirlangan. Asarda ko'proq voqealarni ortga qaytib eslash tasviriy uslubi yetakchilik qiladi. Sujetning retrospektiv uslubi kitobxonning asarda kechayotgan voqelikni tartibli tushunish va anglashiga to'sqinlik qilmaydi.

Yozuvchi Imom Moturidiyning kamtar va ayni paytda ulug'vor shaxs ekanligini ko'rsatish uchun romanda obrazlarni muhit bilan konflikt, uning boshqa obrazlar bilan to'qnashuvlari, ruhiyatidagi ziddiyatli jarayonlar tasviri orqali ochib beradi. Yozuvchi Imom Moturidiyning kamtar va ayni paytda ulug'vor shaxs ekanligini ko'rsatish uchun romanda obrazlarni bir-biriga qarshilantirish usulidan mohirlik bilan foydalangan. Jumladan, Imom Moturidiy – Mastonbibi, Imom Moturidiy – Vosiq ibn Qosim, Imom Moturidiy – Xolid Xalaj, Imom Moturidiy – Idris Shomiy, Mastonbibi – To'tiyo xonim, Mastonbibi – Surayyo kabi bir-biriga xatti-harakati yoki fe'l-atvori teskari shaxslarni shu tarzda tasniflash mumkin.

Xattot Nuriy Imomul mutakallimiyn Abu Mansur Moturidiyning risolasini ellik nusxada ko'chirib, zamondoshlariga tarqatadi. U ustozini nihoyatda hurmat qiladi. Moturidiyning o'ta kamtarona hayoti uning “tomi past, eshigi kichik” uyi va kichik jussali, ammo ruhi ulug'vor komil shaxs tasvirida teran aks ettirilgan. Luqmon Bo'rixon romanda badiiy konfliktidan unumli foydalangan. Zero, adabiyotshunos M.Qo'shjonov ta'kidlaganidek, “Konflikt badiiy ijodning asosiy masalalaridan biridir. Hayotni estetik o'zlashtirish va uni aks ettirishda konfliktning roli benihoya katta”¹³; “Konflikt – hayotdagi real qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasidir. Asarda esa u syujetni harakatga soluvchi asosiy kuch, rivoj beruvchi purjina, richagdir. Syujetni asar skeleti deb faraz qilsak, konflikt unga jon beradigan, harakatga keltiradigan yurakdir”¹⁴. Muallif biz tahlil etayotgan “Imom Moturidiy” romanida konfliktni asosiy kuch sifatida ishlatgan, olim aytganidek, konflikt romanning purjinasi, richagi bo'lib xizmat qilgan. Romanda konfliktning bir necha xil va turlaridan foydalanilgan:

¹³ Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 336.

¹⁴ Ўша асар. – Б. 338.

1. Xarakterlar konflikti¹⁵ (Imom Motridiy va boshqa qahramonlar o'rtasidagi konflikt);
2. Bosh qahramon va muhit konflikti (Imom Moturidiy va mo'tazilachilar);
3. Ichki psixologik konflikt (Imom Moturidiy, Xolid Xalaj, Mastonbib, Vosiq ibn Qosim, Idris Shomiy kabi obrazlarning ichki ziddiyati).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yangi o‘zbek nasrida ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy ideallar talqini”** deb nomlangan. Bobning birinchi fasli “Milliy va umuminsoniy ma’naviy-axloqiy ideallar”, ikkinchi fasli esa “Zamonaviy ijtimoiy ideallar badiiy talqini” deb nomlangan. Bobning ilk faslida yangi o‘zbek nasrining ikki ijodkori L.Bo‘rixon va Q.Norqobil asarlarida Sadoqat, Lafzi halollik, Sobitlik (“Qo‘shyaproq”, L.Bo‘rixon hikoyasi), Shukronalik, Komillik (“Ovchining o‘limi”, L.Bo‘rixon hikoyasi), Muhabbat, Go‘zallik, Hayotsevarlik (“Ko‘zlarini ko‘rgani keldim”, “Nozi... Nozigul”, Q.Norqobil hikoyasi; “Yigit iltijosi”, L.Bo‘rixon hikoyasi), Vijdon, Imon, Do‘stlik, Adolat (“Quyosh hali botmagan”, L.Bo‘rixon qissasi) kabi etik va estetik ideallar tahlil qilingan.

“Qo‘shyaproq” hikoyasida yoshlar hayotidan qisqa bir voqea hikoya qilinadi¹⁶. Hikoya qahramoni Sherqo‘zi hikoya boshlanishida nihoyatda baxtli, omadli, to‘kis yashayotgan bir erkak sifatida tasvirlanadi. Hikoya sarlavhasi uning talabalik yillaridagi ilk sof muhabbatiga ramziy ishora beradi. Gap shundaki, hikoya qahramoni Sherqo‘zi qo‘shni jumhuriyatdan bo‘lgan Maysara ismli kursdoshini sevib qoladi. Ular kelajakda baxtli hayot qurish haqida ahd-u paymonlar qilishadi. Biroq Sherqo‘zining otasi o‘g‘lini boobro‘ odamning qiziga uylantiradi. Hikoyadagi bu kabi sahnalar orqali bugungi kun kishilari tabiatidagi subutsizlik, qat’iyatsizlik, fikrsizlik kabi salbiy illatlar ochib beriladi, ularda yetishmayotgan ma’naviy-axloqiy estetik ideallar namoyon bo‘ladi.

“Qo‘shyaproq” hikoyasida sadoqat, lafzi halollik, sobitlik kabi ma’naviy-axloqiy ideal bo‘y ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur detal o‘g‘ri yigitni qayta tarbiyalash vositasi sifatida ham e’tiborga molikdir. Shu yerda yozuvchi tarbiya emas, balki badiiy estetik va badiiy axloqiy vazifa bajaruvchi detal shaxsni axloqiy qayta tarbiyalash vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib, nasrning qudratli kuchini namoyon etgan.

Luqmon Bo‘rixon, shubhasiz, Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasidan ta’sirlangan va unga taqlid qilgan. Shu bilan birga, ana shu ta’sir va taqlidchilikni yengib o‘tib, o‘z hikoyasini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Omon ovchi (Sh.Xolmirzayev) nihoyatda shafqatsiz ovchi edi. Hatto ovi baroridan kelmay qolganida, sog‘in sigirini urib, belini sindiradi, xotinini uch taloq qo‘yadi. Ona-bola uni yolg‘iz tashlab ketgach ham uning qalb ko‘zi ochilmaydi. Omon ovchi qalbi o‘lib, muzlab qolgan, odamiylik qiyofasini batamom yo‘qotgan odam. Ammo Ovchi (Luqmon Bo‘rixon) Omon ovchining aksi: qalbi toza, rahmdil,

¹⁵ Изох: Конфликтнинг ушбу турларини аниқлаштириб олишда Д.Курунов таснифидан фойдаланилди. Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – Б. 109.

¹⁶ Бўрихон Л. Қўшяпроқ / Қуёш ҳали ботмаган. – Тошкент: О‘zbekiston НМИУ, 2015. – Б. 322-338.

ovchilik qonun-qoidalariga rioya etadigan yaxshi odam. Omon ovchi hayvonlarni otish mumkin bo'lmagan paytda, ya'ni bolalaydigan mavsumda ham ularga qiron keltiradi. Hikoya yakunida Omon ovchi shafqatsizligi, berahmligi uchun dahshatli o'lim topadi. Qishning qorli kunida jarga yumalab, qor kurtigiga ko'milib, shu yerda nafas ololmay jon beradi. O'ligi o'laksaxo'r qushlarga yem bo'ladi.

Luqmon Bo'rixonning Ovchisi esa "chin ovchilar yo qoyadan uchib, yo yirtqichlar bilan olishib, o'lim topadi" degan gapga ishonadi. Hatto o'zi bu haqda ko'pdan ko'p ertag-u cho'pchaklarni o'g'liga to'qlinlanib aytib yuradi. Ona bo'rini otib, oyoq-qo'li ishlamay qolgan Ovchi bir hafta o'tgach, jon beradi. Luqmon Bo'rixon "Ovchining qismati" hikoyasida Shukur Xolmirzayev hikoyasidagi badiiy g'oyaga teskari yo'ldan boradi. Shukur Xolmirzayev Omon ovchining o'limini gunohlari uchun jazo olgan salbiy qahramon sifatida aks ettirgan bo'lsa, Luqmon Bo'rixon Ovchining o'limi orqali o'z qismatidan, kasbidan rozi-rizo bo'lgan shukronalik keltirgan inson qismatini badiiy gavdalandirgan. Har ikki yozuvchi Ovchining fojiali o'limiga ikki xil yondashgani mazkur faslda qiyosiy-tipologik tahlillarda oydinlashtirilgan.

Luqmon Bo'rixon Shukur Xolmirzayev hikoyasida namoyon bo'lgan estetik ideal "Komil inson" bo'lish haqidagi konsepsiyasini ham yangi rakurs va yangicha qarash bilan almashtirib bera olgan. Luqmon Bo'rixonning "Ovchining qismati" hikoyasida Shukronalik estetik ideal sifatida bo'y ko'rsatgan. Shuningdek, bu faslda Qo'chqor Norqobilning "Ko'zlaringni ko'rgani keldim", "Qordagi lola", "Nozi... Nozigul", "Osmon ostidagi sir" hikoyalarida namoyon bo'lgan etik-estetik ideallar tahlil etilgan. Qo'chqor Norqobilning "Nozi... Nozigul" hikoyasida insoniy sof tuyg'ulardan biri – muhabbat asosiy motivga aylangan. Yozuvchi o'zbek va dunyo adabiyotida juda ko'p bor qalam urilgan muhabbat mavzusida o'zining shaxsiy dasxati bilan Nozigul va shoir Sarvar o'rtasidagi muhabbat kechinmalarini bayon etadi.

Hikoyada qirqqa kirib ham uylanmagan, ammo el orasida mashhur bo'lgan yozuvchi Sarvar Sardor ona qishlog'iga keladi. Maktabda birga o'qigan sinfdoshlari bilan yigirma besh yildan so'ng uchrashadi. Sarvar Sardor bolaligidagi muhabbati Nozigul va u bilan bog'liq voqealarni eslaydi. Ularning bolalik xotiralaridagi "surxa, oq kishmish, tuyatish uzum" ularni bir-biriga bog'lovchi ramz sifatida ko'rinish beradi. Hali sevgi nimaligini tushunmagan yosh bolalar maktabni tugatib ham bir-biriga sevgi izhor qilishga ulgurmaydi. Nozigulni otasi Haydar bakovul Chori kontujga erga berib yuboradi. To'yning ertasiga Sarvar poytaxtga o'qishga ketadi. Ammo Nozigul Chori kontuj bilan baxtli bo'lmaydi. Afg'on urushi ishtirokchisi bo'lgan Chori o'zini osib qo'yadi. Qaynota-qaynona Nozigulni shumqadam deb kun bermaydi. Nozigul Chori kontujdan bitta qiz orttirib, ota uyiga qaytib keladi.

Ushbu hikoyada Chori kontuj kurash maydonida g'olib bo'ladi. Nozigulni baxtli qilishga loyiq ko'rib, kuyovlikka saylab olinadi. Chori kontuj "elning ardog'i bo'ldi, elning arzandasi bo'ldi". Sarvar uchun "dunyoning kengligi

oyog'idagi kirza etikcha bo'lmay qoldi". Buni qarangki, o'zi baxtsiz inson hech kimni baxtli qilolmaydi. O'zida yo'q narsani qanday qilib o'zgalarga berish mumkin? Uning kuyovlikka saylanishi Sarvar va Nozigul muhabbati o'rtasiga "baland devor" bo'lib urildi. Qo'chqor Norqobil o'ziga tengdosh "bo'yinsalar" taqdirida afg'on urushi va urush keltirgan baxtsizliklarning chegara bilmasligini ko'rsatishga harakat qiladi. Allaqachon tugagan urush insoniyat taqdiriga qora tamg'a bo'lib bosilishini Kontuj personaji orqali yanada yorqinroq tasvirlashga erishadi.

Masalaga boshqa tomondan qaralganda, urushda o'z ideali, hayotiy maqsadini yo'qotgan odam qaytadan o'zligi, asl maqsadini topa olmasligi va boshqalarni ham baxtsiz qilishini ko'rsatgan. Bu yerda global miqyosdagi ma'naviy muammo yotibdi. Bu insonning o'z idealini anglashi, unga intilishi va uning hayotiga hech qanday boshqa kishining aralashmasligi shartligi ko'rsatilgan. Q.Norqobilning "Osmon ostidagi sir" hikoyasi o'tkir dramatismga boy syujeti, o'ziga xos yangiligi bilan adabiyotshunoslar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Adib mazkur hikoyada ham urush qurboniga aylangan To'lqin tank va Xayrinisaning achchiq qismatini ta'sirchan voqea orqali tasvirlaydi. To'lqin tank afg'on urushi ishtirokchisi bo'lgan. U urushda qattiq jarohatlanib, bepusht bo'lib qolgan. Yosh jangchi yigit o'sha paytda shifokor va hamshiraning unga achinib qarashi ma'nisini anglamasdan omon qolganiga shukur qiladi. Ammo To'ychi polvonning qizi Xayrinisaga uylangach, o'zining bepushtligini anglab yetadi. Qaynotasining vafotidan keyin Muztar kampir qizi Xayrinisani "o'tkir nafasli Ro'zi maxsum"ga o'qitishga olib keladi. Aslida, Ro'zi maxsum axloqsizligi tufayli xotini Ruqiyaning qarg'ishiga qolgan betavfiq odam. U ayollarni aldab, "o'qiyman" deb axloqqa zid ishlar qiladi. Xotini erining Ruqiya tatar ayol bilan bo'lgan axloqsiz munosabatidan xabar topib, bu voqeani hech kimga aytmasdan erini qarg'ab, qizi bilan qishloqdan bosh olib chiqib ketadi. Shundan beri Ro'zi maxsum yolg'iz, so'qqabosh bo'lib yashaydi. Olti-etti yildan beri farzandga zor Xayrinisaning dardini u biladi. Shuning uchun Xayrinisaning onasi Muztar kampirga katta qo'chqor ehson qilib, o'zining shum niyatini amalga oshiradi. Xayrinisa ham o'zi istamagan holda Ro'zi maxsumning qora to'riga tushadi. U o'zidan jirkanadi, erini aldayotganidan qiynaladi. Homiladorligini sezib qolgan To'lqin tankka "menga it tekkan" deb haqiqatni tan oladi. Shundan so'ng To'lqin tank o'zini osib o'ldiradi.

Yozuvchi Q.Norqobil "Osmon ostidagi sir" hikoyasida axloqsizlik ko'chasiga kirib qolgan bir ayolning sirlarini butun umr yuragida zilday qilib ko'tarib yurishi va bu sirdan voqif bo'lgan uch shaxs (Muztar kampir – Xayrinisaning onasi, To'lqin tank – Xayrinisaning eri, Ro'zi maxsum – Xayrinisaning qizi Yodgoroyning haqiqiy otasi) vafot etganida, yengil nafas olishi mahorat bilan yoritilgan. Aslida, jamiyatda bunday voqealar sodir bo'lgan, hatto bunday nosha'riy munosabatlardan tug'ilgan bolalar haqida ko'pgina og'zaki gurunglar yuradi. Q.Norqobil ana shu xalq orasida urchib ketgan bunday sirli munosabatlar

asosida og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan voqeyiy hikoyalardan unumli foydalangan holda, befarzand ota-onaning fojiasini urush motivi bilan bog‘laydi.

Yozuvchi hikoyada Ro‘zi maxsum va Xayrinisaning ma‘naviy-axloqiy tubanligini ko‘rsatish orqali Axloq va Imon etik-estetik ideallarini namoyon etgani faslda tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu faslda L.Bo‘rixonning “Yigit iltijosi” hamda “Quyosh hali botmagan” asarlarida namoyon bo‘lgan etik-estetik ideallar ham tadqiq etilgan. Adibning “Quyosh hali botmagan” qissasida Muhabbat, Halollik, Imon, Vijdon kabi etik va estetik ideallar aks ettirilgan. Ijodkor bir qarashda hamma biladigandek tuyulgan voqea va kishilar turmush tarzi ostida inson ma‘naviy qadriyatlarining o‘zak qismi sanalgan etik va estetik tushunchalar xalq, millat orasidan yo‘q bo‘lib ketmasligi, uni asrovchi, saqlovchi va keyingi avlodga yetkazuvchi kishilar hamma vaqt mavjud bo‘lishini badiiy tasvirlaydi.

Qissa kompozitsiyasidagi “Biz hali Absal polvonni tanimas edik” va “Quyosh hali botmagan” takroriy jumllarini voqealar va qahramon ruhiy holatiga hamohang asosiy boshlanma va tugallanma deyish mumkin. Qissada ikki do‘st Norsoat va Davronlarning Kengsoyda kechgan bolaligi, bolalik xotiralarini yodga soluvchi kalit so‘z “Quyosh hali botmagan” shiorini jo‘r bo‘lib, baralla baqirib aytayotgan cho‘llik bolalar sarguzashtlari hikoya qilinadi. Ikki yosh o‘spirin Tanzilaga oshiq bo‘lib qoladi: biri – oshkora, biri – pinhona. Luqmon Bo‘rixon ana shu uch qahramonning ruhiy holatini tasvirlash orqali insonning ichki qiyofasini kashf etadi.

Aslida, Norsoatni g‘irromlik qilgani uchun ayblab bo‘lmaydi. U o‘z sevgisi uchun g‘irromlikka qo‘l uradi. Buni Tanzilaga ham aytadi. Ikki do‘stning bir qiz uchun o‘yin uyushtirishi zamonaviy tushuncha bo‘yicha xatodek tuyuladi. Ammo qadim odatlarimizda bunday vaziyatda kuchli, irodali yigit g‘olib bo‘lishi uchun kurash tushirilgan. Yozuvchi ana shu odat bo‘yicha etik va estetik ideallarni qayta jonlantirishga intiladi. Ammo endi zamon va tushunchalar o‘zgargan chog‘da Norsoatdek g‘irrom kishilar ko‘p topiladi hamda ularning qilmishi oqlanadigan bo‘lgan. Aslida, etik va estetik tushunchalar bo‘yicha u xato qildi. Lekin buni u kech anglaydi. U o‘zi va do‘stining yetuk ideallarini tan olmay bu kurashda o‘z nafsoniyati uchun uch shaxsning baxtini qurbon qilgan edi.

Davron Norsoatni g‘irrom o‘yin qilganini aytsa-da, hech kim unga ishonmaydi. Kun kelib, u chempion bo‘lib, dunyoga tanilsa-da, o‘zini baxtli his qilmaydi. Chunki u haqiqiy sevgisini topmaydi. Bu jihatdan u Norsoatga havas bilan qaraydi. Shuning uchun u musobaqada xaloyiq oldida “Norsoat dunyodagi eng kuchli polvon” deb e‘lon qiladi. Ikki do‘st bir-biridan kechirim so‘raydi: “– Kechir meni, do‘stim, kechir. Yo‘q, sen kechir, – dedi Davron ham tovushi titrab, – senga ko‘p ozor berdim.

Ovozim tobora xirillab, so‘niq chiqardi.

– Sen mard, halol insonsan...

– Yo‘q, senga teng kelolmayman, – dedi Davron kaftlarini ko‘ziga tekkizib olarkan, – sen mardlarcha sevgining quli bo‘lolding, men esa hali sevgining o‘zini ham topolganim yo‘q”¹⁷ .

Parchadan ma‘lum bo‘ladiki, Norsoat o‘z xatosini kech bo‘lsa-da, tan oladi. Bu esa hali qalblarda, inson ruhiyatida quyoshdek ideallar yo‘q bo‘lib ketmaganiga ishora qiladi. Shuning uchun adib qissaga “Quyosh hali botmagan” deya sarlavha qo‘yadi.

Bobning keyingi faslida zamonaviy ijtimoiy ideallar talqini ikki adib ijodi misolida tahlil qilingan. Luqmon Bo‘rixon hamda Qo‘chqor Norqobil asarlarida bir-biriga o‘xshash yoki o‘xshamagan ijtimoiy ideallarning zamonaviy talqinini kuzatish mumkin. Bu ikki yozuvchi nasrini tahlil va talqin etishda ular adabiyot olamiga kirib kelgan davrdagi ijtimoiy omillar va adabiy jarayonni hisobga olmaslik mumkin emas. Xususan, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida sho‘ro davri cho‘lquvarlarining fojiviy qismatiga urg‘u berilgani holda, afg‘on urushi ishtirokchilarining achchiq qismati Qo‘chqor Norqobilning shu mavzuda yozilgan ko‘plab hikoyalari va “Daryo ortidagi yig‘i”, “Kulib tur, azizim”, “O‘n sakkizga kirmagan men bor”, “Qordagi lola” kabi qissalari bilan umumiy badiiy mushtaraklik hosil qiladi. Ayniqsa, bugungi tobora tinchlik, farovonlik, shaxs erki kabi ijtimoiy ideallarning badiiy ifodasiga ehtiyoj kuchaygan bir paytda Qo‘chqor Norqobil asarlari yanada katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Qo‘chqor Norqobilning barcha asarlarida urushda jabr ko‘rgan inson iztiroblari bosh mavzuga aylanadi. Personajning real hayotdagi mavqeyi yoki turmush tarzi uning inson sifatidagi etik va estetik idealiga mos kelmasligiga urush sababchi ekanligi doimo ta‘kidlanadi. Alaloqibat, adib ijodida muallifning o‘zi va uning quroldosh do‘stlari asar qahramonlariga aylanadi. Yozuvchining urushga nafrat bilan yozilgan qator asarlarida tinchlik estetik ideali namoyon bo‘ladi.

O‘tgan asrning 80-yillarida bo‘lib o‘tgan afg‘on birodarkushlik urushi voqealarini o‘z asarlariga singdirgan Qo‘chqor Norqobil nasrida urushni qoralovchi ijtimoiy ideallar chuqur dard bilan tasvirlanadi. Ushbu dard estetik idealga aylanadi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, adib asarlarida tasvirlangan bu mavzu sobiq SSSRning qabih xatosi va bu bema‘ni urushlarda ishtirok etgan navqiron avlodning ham jismoniy, ham ruhiy fojialarini teran aks ettirishi muallif tarjimai holi bilan tutashib ketadi. “Daryo ortidagi yig‘i” qissasida muallifning o‘zi hamda ikki quroldosh do‘sti Rinat va Mo‘minlarning afg‘on urushida qon kechib olib borgan hayotiy front lavhalari tasvirlangan. Shuningdek, bu faslda “Quyoshni kim uyg‘otadi?”, “Yurakdagi yuk”, “Urushning surati”, “Eng kuchli bola” (Q.Norqobil), “Jaziramadagi odamlar”, “Titrayotgan tog‘” (L.Bo‘rixon) asarlarida namoyon bo‘lgan ijtimoiy ideallar tahlil etilgan. Yozuvchi ijodida tinchlik estetik ideali bugungi XXI asrdagi muhim ijtimoiy muammo bo‘lishi bilan birga shaxsiylashib ketgan. Shu ma‘noda D.Quronovning quyidagi iqtiboslari

¹⁷ Бўрихон Л. Куёш ҳали ботмаган / Куёш ҳали ботмаган. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015. – Б. 206.

bizning fikrimizga hamohangdir: "... san'atkor estetik idealiga o'z davrining ilg'or ijtimoiy maqsadi ham singib ketadi. Faqat bir shart bor: o'sha ijtimoiy maqsad san'atkor uchun shu darajada shaxsiylashib ketishi zarurki, endi u o'sha maqsadga o'z-o'zining maqsadi deb qarasin – ijtimoiylik va shaxsiylik chegaralari yo'q bo'lib ketsin. Mana shu shartni uddalay olgan ijodkor endi hech kimning xizmatchisi emas, aniqrog'i, u endi o'z idealining xizmatchisi, xolos"¹⁸. Shaxsiy maqsadga aylangan ijtimoiy ideal kishini o'z davri, jamiyatidan yuksakroqqa, zamondoshlaridan o'zib ketishga, alaloqibat, begonalashishiga olib keladi. Chunki "So'z sifatida boshida har qanday belgi aniq hissiyotli obrazning juda cheklangan tasvirini ifodalaydi, biroq tasavvur kuchi bilan shu ondayoq badiiy obraz sifatida umumlashtirish imkoniyatini oladi... shu yerda tipga, idealga aylanadi"¹⁹. Shu ma'noda Qo'chqor Norqobilning "Bosinqirash" hikoyasida ham dastlab shaxsiy muammo oddiy, ko'pchilik ko'rgan, bilgan va e'tibor qilmaydigan darajada ko'nikkan voqeaga asoslangan. Ammo A.A.Potebnya ta'kidlagan oddiy belgi anglatgan mavzu, muammo ijtimoiy muammo bilan qo'shib, global estetik idealni ifodalashga xizmat qiladi. Adib urushdan qaytib kelsa ham, "urush azoblari xotiraga aylanmay", aksincha, "har kuni davom etadigan" qahramonning ruhiy kechinmalarini mahorat bilan tasvirlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Yangi o'zbek nasrida etik va estetik idealning namoyon bo'lishi**" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli "Adabiy qahramon va milliy xarakter etik-estetik ideal sifatida", ikkinchi fasli esa "Kinoyaviy estetik ideal" deya nomlanadi. Adabiyotshunoslikda adabiy qahramon, xarakter, milliy xarakter, etik-estetik ideal kabi nazariy tushunchalar haqida sho'ro davri, postsovet davri o'zbek adabiyotshunosligida anchagina bahslar bo'lgan. Akademik M.Qo'shjonov o'zining "Oybek mahorati", "Abdulla Qahhor mahorati", "Nazariy lavhalar", "Saylanma"sida yozuvchi ideali, mazmun va shakl birligi, xarakter, obraz, salbiy obraz, ideal qahramon, pafos, syujet, konflikt kabi ko'plab nazariy masalalarga to'xtalib o'tgan. Xususan, biz e'tibor qaratmoqchi bo'layotgan "adabiy qahramon" va "milliy xarakter"da etik-estetik idealning namoyon bo'lishi haqida ham ozmi-ko'pmi nazariy fikrlar bildirgan²⁰. Olim xarakter tushunchasiga shunday nazariy ta'rif beradi: "**Xarakter** (adabiyot va san'atda) – badiiy asarda tasvirlangan inson obrazi. U ma'lum bir muhitning xarakterli tomonlari va tarixiy davr idealini o'zida mujassamlashtiradi. Xarakter muayyan dunyoqarashlardagi san'atkor ideali ifodalaydigan real hayotiy shaxsdir. Adabiyot va san'atning ko'pgina turlarida xarakter tasviri bosh masalalardan biri. Hayot haqiqati, san'atkor dunyoqarashi, u olg'a surmoqchi bo'lgan g'oyalar asarda, asosan, xarakter orqali

¹⁸ Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 66-67.

¹⁹ Потебня А. А. Теоретическая поэтика /Сост., вступ.ст., коммент. А.Б.Муратова. – М.: Высшая школа, 1990. – С.31 (344).

²⁰ Қўшжонов М. Маъно ва мазмун. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – 168 б.; шу муаллиф. Назарий лавҳалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 52 б.; шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – 232 б.

yuzaga chiqadi”²¹. Demak, olim estetik idealning hayot haqiqati, badiiy asar g‘oyasi, milliy xarakterda namoyon bo‘lishini “xarakter”ga berilgan ta’rifda ifodalab bergan. M.Qo‘shjonov yana “ideal qahramon” masalasiga ham alohida to‘xtaladi: “**Ideal qahramon** jamiyat ilg‘or a‘zolarining ko‘pchiligiga xos yaxshi xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan shaxs obrazidir”.

Bu terminning paydo bo‘lishi sotsialistik realizmning tug‘ilishi bilan bog‘liq. Ma’lumki, har bir revolyutsion burilish boshqalarga o‘rnak bo‘larli qahramonlarni yaratadi. Ideal qahramon ijobiy qahramonning mukammallashgan bir ko‘rinishidir. Bu masala yuzasidan tanqid va adabiyotshunoslikda ko‘pgina tortishuvlar bo‘ldi: birovlar “odam kamchiliksiz bo‘lmaydi, shuning uchun ideal qahramon ham bo‘lishi mumkin emas”, desa, boshqa birovlar “jamiyatda bekamu ko‘st odamlar bo‘lishi mumkin, ular adabiyotda ham o‘z aksini topishi kerak”, degan fikrlarni bildirdi. Har ikkala fikr ham kamchilikdan xoli emas edi. Odam kamchiliksiz bo‘lmaydi. Lekin adabiyot va san’at ma’lum bir davrni aks ettirmoqchi bo‘lar ekan, ijobiy qahramon sifatida o‘sha zamonning ilg‘or tendensiyalarini o‘zida mujassamlashtirgan qahramonlarni tanlaydi”²².

M.Qo‘shjonov “ideal qahramon” tushunchasiga nazariy ta’rif berar ekan, uning muhim asosiy xususiyatlarini to‘g‘ri belgilaydi. Ammo “ideal qahramon” terminining paydo bo‘lishini sotsialistik adabiyot bilan bog‘lab, adashadi. Chunki “ideal qahramon” yozma adabiyot paydo bo‘lmasdan oldin mavjud bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham bor edi. Masalan, Alpomish, Barchin, Qaldirg‘och, Go‘ro‘g‘li, Avazxon kabi obrazlar xalqning eng mukammal ideallarini o‘zida mujassam etgan etik-estetik ideallardir. Shuningdek, ming yillik o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarida ham buyuk ijodkorlar o‘lmas va mangu etik-estetik ideallarini bosh qahramon va personaj timsollarida aks ettirishgan. Masalan, Farhod, Shirin, Hotamtoy, Iskandar kabi o‘nlab va yuzlab adabiy qahramon va yordamchi obrazlarda adiblarning eng go‘zal etik va estetik ideallari namoyon bo‘lgan.

Yevropa tanqidiy realizmi va jahon modernizmi, postmodernizm davri adabiyotida “ideal qahramon” tushunchasiga darz ketdi. Rus tanqidiy realizmining yirik ijodkori F.M. Dostoyevskiyning Raskolnikov obrazi (“Jinoyat va jazo”)ning qotillikka qo‘l urishi ortida mavjud jamiyatga isyon yotadi. Raskolnikov telbalarcha tuzgan nazariyasi asosida ijarachi kampir va unga qo‘shib singlisini ham o‘ldiradi. Dostoyevskiy jinoyatchi qahramonning ruhiy dunyosini badiiy taftish etish orqali “adolat” estetik idealini ilgari suradi. Shuningdek, Nobel mukofoti sovrindori A.Kamyuning juda ko‘p bora bahslarga sabab bo‘lgan Merso obrazi hamda uning sovuqqon xarakteri va jinoyati ortida “shaffof insoniy munosabatlar” estetik ideali yotadi. Merso onasi vafot etganda, ko‘zyosh to‘kmaydi. Azadan shaharga qaytib kelgan kuni yoqtirgan qizi bilan kafeda xushchaqchaq kayfiyatda o‘tiradi. Dengiz sohilida dam olib yotganida, quyoshni

²¹ Қўшжонов М. Назарий лавҳалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 11.

²² Ўша асар. – Б. 21-22.

to'sgani uchun kiprigini ham qimirlatmasdan qotillik qiladi. Sud Mersoni qotillik qilgani uchun emas, balki onasi vafot etganida yig'lamagani uchun o'lim hukmini o'qiydi. Merso nosamimiy, munofiqona munosabatlardan jirkanadi. U ana shu ikkiyuzlamachi jamiyatga qarshi o'zining sovuqqon va bemehr xarakteri bilan odamlarda "begona shaxs" timsolli obrazini o'zida mujassam etgan.

Adabiyotshunos U.Hamdammov "Begona" asari va uning qahramoni Merso haqida shunday fikrlarni bildirar ekan, bular haqiqatdir: "Begona" oson o'qiladigan asar emas. Chunki Mersoning dosh berish o'ta mushkul bo'lgan samimiyati hassos qalbli o'quvchini muvozanatdan chiqaradi. Ayrimlar uni dahriylikda ayblashni xush ko'radi. Ayniqsa, ming yillar davomida e'tiqodni mustahkam ushlab kelgan ona Sharq farzandlari uchun Mersoning din-u e'tiqod borasidagi qarashlari juda og'riqli. "Boshiga tushgan barcha ko'rgiliklari Mersoning e'tiqodsizligi tufaylidir", – deb o'ylaydiganlar bor. Lekin "Buning uchun Mersoning ayblashga, boshiga mag'zava ag'darishga ma'naviy haqqim bormi?" – deb so'raydigan kam"²³.

Bu faslda "Bu yerlarda hayot boshqacha", "Chol xafa bo'ldi", "Tomirdagi qon qayg'usi" (Q.Norqobil) va "Quyosh hali botmagan" (L.Bo'rixon) asarlarida namoyon bo'lgan adabiy qahramon va milliy xarakter etik-estetik ideal ifodasi ekani tahlil etilgan. Bobning so'nggida "Yalangoyoq", "Begimqul katta", "Cho'ldan kelgan tashvish", "Jaziramadagi odamlar" (L.Bo'rixon) hamda "Tirik haykal" (Q.Norqobil) hikoyalarida namoyon bo'lgan kinoyaviy estetik idealning namoyon bo'lishi yoritilgan. Hozirgi o'zbek nasrida kinoyaning o'ziga xos badiiy uslubini yaratgan Luqmon Bo'rixonning "Yalangoyoq" hikoyasida yozuvchining nim tabassumi, istehzosi ifoda topgan. Adib asarga oddiy bir voqeani asos qilib oladi. Ya'ni poyezdda ketayotgan talaba Halim akasi sovg'a qilgan qimmatbaho tuflisini o'g'irlatib qo'yadi. Muallif nim tabassum bilan bayon etgan bu voqea zamirida jamiyatdagi o'g'rilik, qalloblik, o'z ishini suiiste'mol qilish kabi ijtimoiy illatlarga kitobxon diqqatini qaratadi. Bir qarashda mazkur hikoya A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini esga soladi. Bir asr ichida yaratilgan har ikki hikoyada o'g'rilar, aslida, jamiyat va davlat ishonch hamda vakolat bergan odamlar ekani ho'kiz va tuflining o'g'irlanishi voqeasida ochiladi.

A.Qahhor ho'kizini o'g'irlatgan Qobil boboning sarson-sargardonliklarini kichik hajmli hikoyada aks ettirar ekan, go'yoki kitobxonga paradoksli jumboqni o'rtaga tashlaydi. Xo'sh, Qobil bobo ho'kizining topilishiga umid bergan ellikboshi, amin, azayimxon, pristav, tilmoch, Egamberdi paxtafurush yomon va mas'uliyatsiz odamlarmi? Yoki o'zi tushib qolgan muammoli girdobdan chiqib ketolmay, hammaga pora berayotgan Qobil bobo yaxshi insonmi? Yoki bo'sh-bayov, fikrsiz odammi? Sho'ro davri qahhorshunoslari zo'r berib, Qobil boboni jabrdiyda obraz, ellikboshi, amin, azayimxon, pristav, tilmoch, Egamberdi paxtafurushlarni esa ezuvchi sinf sifatida talqin etib keldi. Luqmon Bo'rixon badiiy uslubida kinoyaning o'ziga xos ko'rinishi aks etgan. Muallifning qay bir asarini

²³ Хамдамов У. Жаҳон адабиёти: модернизм ва постмодернизм. – Тошкент: Академнашр, 2020. – Б. 25.

olmang, unda kinoya va uning badiiy vositalari mahorat bilan qo'llanganini kuzatish mumkin. Xususan, yozuvchining "Jaziramadagi odamlar", "Imom Moturidiy" romanlarida ham luqmonona kinoya ko'zga tashlanadi. Biz mazkur o'rinda yozuvchining "Quyosh hali botmagan" qissasida namoyon bo'lgan kinoya va kinoyaviy munosabatga e'tibor qaratamiz.

Qissa voqealari Norsoat tilidan hikoya qilinadi. Shuning uchun asarda Norsoatning Tanzilaga, Davronga kinoyaviy munosabati uning ichki monologida aks etgan. Qissada namoyon bo'lgan kinoya shaklini qahramonning jamiyatga kinoyaviy munosabati deb baholashimiz mumkin. Norsoat hayotida sodir bo'layotgan voqealar, keskin munosabatlar, do'sti bilan raqibga aylanish jarayonida o'z-o'zi bilan suhbatlashadi va har bir voqeaga faol munosabat bildirib, kinoyaviy pozitsiyani egallaydi. Masalan, Davron Tanziladan o'ttizta xat olganini eshitgach, uning ichidan quyidagicha kinoya va istehzo bilan quyidagi gaplar quyilib keladi: "Tanzila chindan ham hali paxta yig'im-terimidan qaytmagan ekan. Viloyat pedagog kadrlar tayyorlov texnikumi talabasi! Qanaqa pedagog... behayo, masxaraboz u! Soyga yetaklab borib, sug'ormay qaytaradigan ayyor alvasti! Tamom, bu qiz endi menga begona, ko'rmayin ham, kuymayin ham..."²⁴.

Yoki, mag'lub deb e'lon qilingan Davronning holatini Norsoat nigohi bilan kinoyaviy kulgili fonda tasvirlaydi: "O'rtanib o'rmalayotgan polvon lampa chiroqlar yog'dusi ostida hanuz tiz cho'kkan ko'yi haykalday qotib qoldi. Uning shu turishi kitoblardagi antik davr yunon-rum qahramonlari tasvirini eslatib yuborardi"²⁵.

Ayni paytda Norsoat o'z-o'ziga ham kinoyaviy pozitsiyada turadi. U g'irromlik qilib Davronni yenggani uchun o'zini iflos balchiqqa tushib qolgan odam singari his etadi: "Men o'sha tanish muyulishda, o'sha qayrag'och yonida Tanzilani kutib turishni o'ylagan edim. Ammo ich-ichimdagi allanadir bunga monelik qilardi. Go'yo isqirt, iflos bir balchiqqa botib qolganman-u, bu ahvolda Tanzilaga ko'rinishni istamadim. Qalbim, ong-shuurim bo'm-bo'sh bir tarzda uyga kirib bordim"²⁶. Kuzatib turganimizdek, Luqmon Bo'rixon qissada voqelik va inson ichki ruhiy tovlanishlariga tanqidiy, tahliliy, taftish qilish uchun kinoya va uning vositalaridan unumli foydalangan. Xulosa shuki, yozuvchi o'zining bir qator asarlarida kinoyaviy munosabatni (muallif kinoyasi va qahramon kinoyasi) estetik idealga aylantirgan.

Qo'chqor Norqobilning "Tirik haykal" hikoyasida ham yozuvchining kinoyaviy pozitsiyasi orqali rahbarparastlik, shaxsga sig'inish, xushomadgo'ylik, tavoze-parastlik kabi ijtimoiy illatlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Mazkur asarda adib achchiq kinoya bilan yaratgan Hayqulov obrazi va unga sig'inuvchi rahbarparastlar hamda xushomadgo'ylar (Kastyum ko'tarar va boshqalar)

²⁴ Бўрихон Л. Қуёш ҳали ботмаган / Қуёш ҳали ботмаган. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. – Б. 137.

²⁵ Ўша асар. – Б. 162.

²⁶ Ўша асар. – Б. 163.

jamiyatda bolalab ketgan jiddiy ijtimoiy illatga aylanganini fosh etadi. Qo‘chqor Norqobilning hech bir asarida “Tirik haykal”da qo‘llangan kinoya va sarkazm ko‘zga tashlanmaydi. Adib hikoya qahramoni Hayqulov ismini ham Haykal so‘zining birinchi bo‘g‘inidan olib, yangi so‘z yasaydi. Muallif haykalga qul, ya’ni tirikligidayoq o‘zini ideallashtirish fikri bilan o‘rtanayotgan shuhratparast odam obraziga ramziy ma’noda Hayqulov familiyasini beradi. Yozuvchining obrazli ifodasi bilan aytganda “... yetmishga yamoq, saksonga saboq berib turgan qariya”. Hayqulov millatning ma’naviy daholariga o‘rnatilgan haykallarini ko‘rib, o‘zining ham haykali bo‘lishini orzu qilib, tirikligidayoq tosh supa ustiga chiqib, haykalga aylanadi. Bu mistik, romantika Hayqulovning xayolida sodir bo‘ladi. Qahramonning bu ruhiy holatini yozuvchi Qo‘chqor Norqobil shunday tasvirlaydi: “Hayqulov mashina orqa o‘rindig‘ida hansirab nafas olardi. Ko‘ksida bir og‘ir tosh, ha, haykalday og‘ir yuk cho‘kib yotar, bu og‘riq uni zimiston o‘pqon sari tortib borardi go‘yo”²⁷. Mazkur hikoya matnida ham Qo‘chqor Norqobil jonli xalq tilidan mahorat bilan foydalangan: “Xarrakka tiqilgan xarsangni suv emas, sel oqizadi”; “Savdoyining savodi savobni sovuradi”; “Itning iljayganini kim ko‘ribdi”; “...jag‘i yopilmay jig‘iga tekkuvchi”; “Yer bo‘lmasa, osmonda yuradi”; “Qirda turgan qirchang‘i pastda qolgan tulporni tengim demas...”; “Suvilonga suv yuqqanini kim ko‘ribdi”; “Mashqi baland mishiqlar bilan pachakilashib”; “...ketmoniga qayroq uradigan to‘rtta “padxalim” va hokazo²⁸. Yozuvchi “Tirik haykal” asarida tanqid qilingan ijtimoiy illatlarni qoralash orqali fikri ochiq, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan shaxs estetik idealini namoyon etadi.

XULOSA

Tadqiqot bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar, tahlilga tortilgan muammolar ko‘lami va tabiati quyidagi xulosalarni chiqarishimizga asos bo‘ladi:

1. Estetik qarashlar ildizi barcha xalqlar, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarida ham uchraydi. Ammo etik-estetik konsepsiyaning tizimli nazariyasi qadimgi yunon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik dunyoning turli yetakchi olimlari tomonidan rivojlantirilib, to‘ldirilgan. Bular orasida turkistonlik Abu Nasr Forobiy, Aziziddin Nasafiy kabi allomalarning borligi ham o‘z isbotini topgan. Etik va estetik ideal badiiy asarning ikki muhim xususiyati bo‘lib, ular bir-birini doimo taqozo etadi. Axloqsiz estetik yuksalish, estetik idealsiz axloqiy yetuk bo‘lmashligi izlanishlar davomida isbotlandi. Ayniqsa, o‘tish davri va urush ishtirokchilari bo‘lgan yozuvchilar asarlarida idealning ba’zan o‘zgarishga uchrashi, idealini yo‘qotgan shaxsning faoliyati torayishi mumkinligi aniqlandi.

2. Yangi o‘zbek nasrida etik va estetik jihatdan komil obrazlarni yaratish orqali milliy asosdagi umuminsoniy qadriyatlar – ishonch, hayotsevarlik, insonparvarlik, adolat, halollik, mehnatsevarlik, do‘stlik, sadoqat kabilarni yosh

²⁷ Норқобил Қ. Тирик ҳайкал / Самодил. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 304-305.

²⁸ Ўша асар. – Б. 296-300.

avlodga yetkazish maqsad qilingan. Bunda milliy tariximizda salmoqli o‘ringa ega shaxslar obrazini badiiy qayta yaratish muhim sanaladi. Chunki etik idealning bo‘shroq tasvirlanishi yoki nursiz ifodalanishi estetik idealning nursizlanishiga, oxir-oqibatda esa badiiy asar saviyasi pasayishiga olib keladi.

3. Ijodkorning estetik ideali u yaratgan ijobiy obrazlar va g‘oyalardagina o‘z ifodasini topmaydi, balki asardagi salbiy obrazlar qiyofasida ham namoyon bo‘ladi. Estetik idealni namoyon qilishda kulgi, satira, yumor, sarkazm, folklorizmning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligi isbotlandi.

4. Yozuvchi Luqmon Bo‘rixon Moturidiy obrazini yaratar ekan, uning timsolida millat va din taraqqiyoti uchun hissa qo‘shgan yetuk shaxs timsolida jamiyatimizga zarur bo‘lgan axloqan yetuk, ma‘nan buyuk shaxs qanday bo‘lishi kerakligini badiiy ifodalay olgan. Adib Imom Moturidiy hayoti va faoliyatini bugungi zamonaviy muammolar bilan bog‘lab, o‘zining ulkan etik va estetik idealini yaratishga erishdi. Lekin asar xalq ma‘naviy mulkiga aylanishi va ideal obraz darajasida baholanishi uchun ma‘lum vaqt kerak bo‘ladi.

5. Urush davri odamlarida faqat tirik qolishga intilish, hayotdan ko‘ngil qolishi, ruhan charchash kabilar natijasida etik va estetik ideallar ta‘siri pasayishi, faqat bugungi kun bilan yashash holati ko‘zga tashlanadi. Ammo shunday vaziyatda ham yo‘qotilgan ideallarga bo‘lgan intilish urush tugaganiga ko‘p vaqt o‘tsa ham yozuvchini doimo olg‘a intilish, yashashga undab kelgan.

6. Yangi o‘zbek nasrida muhabbat, halollik, imon, e‘tiqod, milliy an‘analarga sadoqat etik-estetik ideali Luqmon Bo‘rixon va Qo‘chqor Norqobilning qator asarlarida namoyon bo‘ldi. Har ikki adib muhabbat, sadoqat kabi etik va estetik ideallarni o‘z qalb prizmasidan o‘tkazib, globallashuv davrining muhim muammolariga diqqat qaratishdi.

7. Qo‘chqor Norqobil (“Daryo ortidagi yig‘i”, “Kulib tur, azizim”, “O‘n sakkizga kirmagan men bor”, “Qordagi lola”, “Bosinqirash”, “Xun”, “Arosat” hikoyalari) hamda Luqmon Bo‘rixon (“Qo‘noq”, “Begimqul katta” hikoyalari va “Temiryo‘l” romani) asarlarida tinchliksevarlik, hayot va o‘lim, imon, mehr-oqibat, sadoqat, adolat, ishonch, mehnatsevarlik, farovonlik ijtimoiy estetik ideallari ijodkorlarning ulkan badiiy mahorati tufayli jonli va ishonarli namoyon bo‘lgan.

8. Luqmon Bo‘rixon (“Jaziramadagi odamlar” romani, “Quyosh hali botmagan” qissasi) va Qo‘chqor Norqobil (“Bu yerlarda hayot boshqacha” hikoyasida Guldirak momo va chol xarakteri, “Chol xafa bo‘ldi” hikoyasida G‘ulom chol xarakteri) ijodidagi qahramonlar milliy xarakterida Qashqadaryo va Surxon vohasi odamlari, donishmand bobolar, momolar, adabiyotsevar odamlar qiyofasi tajassum topgan.

9. Yangi o‘zbek nasrining faol ijodkorlari nasrida bugungi globallashuv jarayonidagi e‘tiqodi butun, milliy qadriyat va an‘analarni asrovchi qahramonlar etik va estetik ideal sifatida talqin etilgan. Luqmon Bo‘rixon o‘z nasrida kinoyaning o‘ziga xos badiiy uslubini yaratgan kuchli ijodkordir. Adibning

“Yalangoyoq”, “Begimqul katta”, “Cho‘ldan kelgan tashvish” hikoyalari va “Quyosh hali botmagan” qissasi, “Jaziramadagi odamlar”, “Imom Moturidiy” romanlarida kinoya va uni namoyon etuvchi badiiy vositalar aks etadi, alalxusus luqmonona kinoya katta etik va estetik idealga evrilgan.

10. Yangi o‘zbek nasrining ikki ijodkori Luqmon Bo‘rixon va Qo‘chqor Norqobil ijodidagi kinoyaviy badiiy uslub orqali XXI asr odamining hayoti va qismatiga tanqidiy, tahliliy munosabatda bo‘linib, jamiyat, olam va insoniyat muammolari kinoya nuqtayi nazari bilan badiiy taftish etilgan. Natijada har ikki ijodkor kinoyani o‘ziga xos etik va estetik ideal vositasiga aylantira olgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 UNDER THE INSTITUTE OF UZBEK
LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE**

INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

SHUKUROVA BARCHIN SAMADOVNA

**THE PROBLEM OF ETHICAL AND AESTHETIC IDEAL IN NEW
UZBEK PROSE**

(on example of the prose of L.Burikhon and K.Norkabil)

10.00.07 – Theory of literature

**DISSERTATION ABSTRACT FOR DOCTOR OF PHILOSOPHY IN PHILOLOGICAL
SCIENCES (PhD)**

Tashkent – 2023

The theme of PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission at the Cabinet Ministry of the Republic of Uzbekistan under the number B2019.1.PhD /Fil.758.

The dissertation has been prepared at the Institute of Uzbek language, literature and folklore.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, Russian, English (resume)) languages on the website of Scientific Council (<https://www.tai.uz>) and «ZiyoNet» information and educational portal (www.ziyo.net).

Scientific advisor: **Milliev Suvonqul**
Doctor of Philological science

Official opponents: **Amonova Zilola Qodirovna**
Doctor of Philological science


Jurakulov Uzoq Haydarovich
Doctor of Philological science, Professor

Leading organization: Tashkent State Pedagogical University

Defense of the Dissertation will take place on «1 February 2023, at 17:00 p.m. at a meeting Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 under Scientific Degree at Institute of Uzbek language, literature and folklore (address: 100060 str. Shakhrisabz passage, 5, city Tashkent. Tel.: (99871) 233-36-50; Fax: (99871) 233-71-44; E-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertation could reviewed at the Fundamental Library of Uzbekistan Academy of Sciences (address: 100100, str. Ziyolilar, 13, city Tashkent. Tel.: (99871) 262-74-58.

The abstract of the dissertation was distributed on 12 January 2023.
(Registry report number 4 on 11 January 2023)



N.F.Karimov

Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, Academician

R.Barakaev

Secretary of Scientific Council
— awarding scientific degrees,
Candidate of Philological sciences, Senior scientific researcher

J.S.Eshankulov

Deputy Chairman of Scientific Seminar at the
Scientific Council awarding scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, Professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Actuality and necessity of the research theme. Ethical and aesthetic ideal, ideal categories, their theoretical aspects, scientific and theoretical issues such as the nature of beauty, goodness, and universality of the perfect ideal are regularly and consistently studied in world literary studies. In the process of globalization, the formation of different ideas and concepts in literature requires the study of the problem of ethical and aesthetic ideal from new perspectives. After all, the idealism in fiction acquires scientific importance as an expression of the human psyche and the spiritual development of society. Studying the issue of the commonality of literature and morality is one of the leading problems in world literary studies, and it has been considered as a research subject since ancient times. Especially in recent years, attempts to make changes to ethical and aesthetic ideal orientations have created the need to clarify this problem. Therefore, morality and ethical-aesthetic ideal are considered an important category of literature and art, forming perfect moral and perfect beauty principles of society and individual. In particular, the study of such categories as aesthetic taste, high morality, perfect personality, moral content of literature, social ideal, aesthetic sense, aesthetic need, literary work's ideality, whole image, irony, laughter, beauty, goodness, and universality is a requirement of the times. The problem of ethical and aesthetic ideals in the Uzbek prose of the period of independence creates the need to research the social, spiritual-ethical, universal ideals in the works of today's active writers Lukman Borikhon and Kochkor Norkabil in the context of world literature. "Attention to literature, art, and culture is, first of all, attention to our people, attention to our future".¹ Consequently, this principle sets the task of researching the problem of ethical and aesthetic ideals in the society of individuals, and studying it on the basis of national and universal categories. Modern Uzbek prose shows the Uzbek character, which considers national traditions and values as sacred, literary heroes in tune with the times, high ideals such as honesty, hard work, patriotism, peace-loving, life-loving, loyalty, and family. PF-4797 of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 13, 2016 "On the organization of the activities of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi", Decree PF-60 of January 28, 2022 "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", Decree No. PQ-2789 of February 17, 2017 "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research", Decree PQ-3271 of September 13, 2017 "Publishing and distribution of book products on the program of comprehensive measures to develop the system, increase and promote book reading and reading culture", decisions of October 19, 2020, Decree PQ-4871 "On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi", Ministers of the Republic of Uzbekistan's Decree 124-F of February 16, 2018 "Study of Uzbek classic and modern literature at the international level and This study serves to a certain extent the implementation of the tasks defined in the decree "On holding the international

conference on the topical issues of promotion" and other regulatory legal documents related to this activity.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. Dissertation research was carried out in accordance with priority directions of republican science and technology development I. "Formation of a system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual-educational development of the information society and the democratic state and ways of their implementation".

The level of study of the problem. In world literary studies, many scientific and theoretical studies have been carried out on the issue of social aesthetic ideal in the history of literature and morality, moral aesthetic ideal, modernity of aesthetic ideal, ethics and spirituality, philosophy and aesthetics. In particular, we can cite the works of such scientists as Plato, Aristotle, Abu Nasr Farabi, Aziziddin Nasafi, Immanuel Kant, Arthur Schopenhauer, Georg Wilhelm Friedrich von Hegel.¹ By the XX century, this problem was studied more widely.² In Uzbek literary studies,

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri (Tanlangan asarlar). – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.; Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2021. – 232 b.; Kant I. Iz “Leksiy po etike” / Eticheskaya misl. 1990. – M.: Politizdat, 1990. – S. 296-323.; Shopengauer A. Izbranniye proizvedeniya. – M.: Prosveshcheniye., 1992. – 302 s.; Gegel. Estetika. v 4-x tomax. Tom 1-y. – M.: Iskustvo, 1968. – 312 s.

